


# Aholining inflyatsion kutilmalari

May oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan pasayib, **10,1** foizga teng bo'ldi.

May, 2026

Jami 3 438 ta respondent qatnashdi



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2025										2026	
	iyun	iyul	avg	sen	okt	noy	dek	yan	fev	mar	apr	may
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	50	51	48	46	46	49	50	48	44	45	51	59
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	45	45	41	41	42	40	47	47	40	41	44	45
Transport xarajatlarining oshishi	30	27	26	25	25	24	29	30	25	25	27	29
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	24	24	22	22	23	20	24	22	20	19	22	23
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	22	24	26	25	27	26	26	23	24	23	28	19
Valyuta kursining o'zgarishi	27	30	24	22	22	20	23	24	28	27	27	19
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	35	34	31	27	26	23	25	22	24	19	24	15


Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **kommunal xizmatlar, yoqilg'i-energiya resurslari va transport xarajatlari qimmatlashishini** qayd etgan aholi respondentlari ulushi ko'paygan bo'lsa **asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashishi, valyuta kursi o'zgarishi, ish haqi hamda nafaqalarning oshirilishini** ta'kidlaganlar ulushi kamaygan.

# Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari

Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari ham o'tgan oyga nisbatan biroz pasayib, **10** foizni tashkil etdi.

May, 2026

Jami 1 762 ta respondent qatnashdi



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2025												2026	
	iyun	iyul	avg	sen	okt	noy	dek	yan	fev	mar	apr	may		
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	47	47	45	44	47	46	46	43	44	40	50	59		
Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi	43	42	40	41	45	42	45	44	42	43	48	49		
Transport xarajatlarining oshishi	32	31	31	30	33	30	37	35	34	33	39	33		
Xomashyo narxlarining qimmatlashishi	25	25	24	26	28	26	25	24	27	26	33	19		
Soliq yukining yuqoriligi	25	26	24	24	23	21	24	20	23	23	27	19		
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	33	34	33	29	25	23	26	24	23	24	26	18		
Valyuta kursining o'zgarishi	31	31	25	22	21	19	23	26	31	24	28	16		

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **kommunal xizmatlar** va **yoqilg'i-energiya resurslari qimmatlashishini** qayd etgan tadbirkorlar ulushi ortgan bo'lsa, **transport xarajatlari** va **xomashyo narxlarining qimmatlashishi, soliq yukining yuqoriligi, ish haqi oshirilishi** hamda **valyuta kursining o'zgarishini** belgilaganlar ulushi kamaygan.


# Inflyatsion kutilmalar - sohalar kesimida

Aholining yuqori inflyatsion kutilmalari **pensionerlar** tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **talabalar** tomonidan qayd etildi.


May, 2026

Respondentlar: aholi – 3 438 ta, tadbirkorlar – 1 762 ta

## Aholi



## Tadbirkorlar



Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **qurilish** sohasida faoliyat olib boradigan korxonalar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **umumiy ovqatlanish** sohasida kuzatildi.


# Inflyatsion kutilmalar - hududlar kesimida

Aholi inflyatsion kutilmalarining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past inflyatsion kutilmalar **Namangan viloyatida** istiqomat qilayotgan aholi tomonidan qayd etildi.


May, 2026

Respondentlar: aholi – 3 438 ta, tadbirkorlar – 1 762 ta

## Aholi



## Tadbirkorlar



Tadbirkorlik subyektlarining yuqori inflyatsion kutilmalari **Jizzax viloyatida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past kutilmalar **Andijon viloyatida** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.




# Inflyatsion kutilmalar (aholi)

Daromadi 4 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.

May, 2026

Jami 3 438 ta respondent qatnashdi



## Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar boʻyicha javoblar taqsimoti

Hudud nomi	8% va undan kamroq	9% - 16%	17% va undan yuqori
Toshkent sh.	24	64	13
Surxondaryo vil.	32	50	18
Fargʻona vil.	40	42	18
Sirdaryo vil.	48	38	14
Toshkent vil.	51	40	9
Samarqand vil.	52	30	19
Jizzax vil.	52	32	16
Qoraqalpogʻiston	54	33	13
Navoiy vil.	54	38	8
Qashqadaryo vil.	55	36	9
Buxoro vil.	56	29	15
Xorazm vil.	57	34	9
Namangan vil.	60	31	9
Andijon vil.	62	30	8

8% va undan kamroq

9% - 16%



17% va undan yuqori

# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

May oyi yakunlariga ko'ra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi o'tgan oyga nisbatan pasayib, **10,3** foizni qayd etdi.

May, 2026

Jami 3 438 ta respondent qatnashdi



Sezilgan inflyatsiya darajasining yuqori ko'rsatkichi **Farg'ona viloyatida** qayd etilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **Navoiy viloyatida** kuzatildi.




# Sezilgan inflyatsiya omillari (aholi)

April-may oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori o'sish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar.

May, 2026

Jami 3 438 ta respondent qatnashdi





# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Daromadi 4 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.

May, 2026

Jami 3 438 ta respondent qatnashdi



Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **pensionerlar** tomonidan bildirilgan boʻlsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **talabalar** tomonidan qayd etildi.